

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT ARXITEKTURA – QURILISH INSTITUTI

«Kasb ta'limi»

Kafedra

REFERAT

Mavzu: T A F A K K U R

Bajardi: Eshniyozova S

Tekshirdi: Boboqulova M

Samarqand 2015 y.

Mavzu: T A F A K K U R

REJA

1. Tafakkur haqida umumiy tushuncha.
2. Tafakkur operasialari (analiz va sintez, taqqoslash, abstraksiya, umumlashtirish, konkretlashtirish, klassifikasiya, sistemalashtirish).
3. Tafakkur shakllari (hukmlar, xulosa chiqarish, tushunchalar).
4. Tafakkur turlari (ko'rgazmali-harakat tafakkur, ko'rgazmali-timoolli tafakkur, intuitiv va analitik tafakkur, abstrakt-konkret tafakkur, ijodiy tafakkur).
5. Yoshlarda tafakkurning o'sishi.

Darsning maqsadi: talabalarda tafakkur to'g'risidagi tushunchalarni hosil qilish. Tafakkurning turlari, shakllari, operasialari, xususiyatlari va inson faoliyatidagi faoliyatidagi ahamiyati haqidagi tushunchalarni shakllantirishdir.

Tayanch iboralar: bilish jarayoni, tafakkur, mantiqiy, abstrakt, konkret, operasiya, hukm, xulosa, tushuncha, bosh miya yarim sharlari po'stlog'i, qo'zg'alish.

Dars o'tish usuli: ma'ruza.

Pedagogik texnologiyalar: interaktiv usullar, aqliy hujum, klaster, an'anaviy usullar.

Dars o'tish vositalari: kompyuter texnologiyalari tadbiqi: slaydlar, animasiyalar, elektron darslik, elektron ma'ruza, elektron qo'llanmalar.

Mashg'ulotning xronologik xaritasi: 1-savol – 10 minut; 2-savol – 15 minut; 3-savol – 15 minut; 4-savol – 15 minut; 5-savol – 15 minut; xulosa – 10 minut.

Darsning mazmuni:

Tafakkur inson ruhiy hayotining, aql-idrokining ongli hatti-harakatlarining yuksak shakli bo'lib predmetlarni, voqyea-hodisalarni bilish vositasi hamda inson shaxsining keng ko'lamli faoliyatini ro'yobga chiqarishning asosiy sharti hisoblanadi. Tafakkur jarayonida insonda fikr, mulohaza, g'oya, faraz kabilar vujudga keladi va ular ongda tushunchalar, hukmlar, xulosalar shaklida ifodalanadi. Inson o'zining tafakkuri, nutqi va ongi tufayli tabiat olamidagi boshqa jonzoddan ustunlikka erishdi, «tabiat toji» bo'ldi. Shuning uchun ham tafakkur boshqa bilish jarayonlariga nisbatan odamning aqliy va jismoniy faoliyatida alohida o'rin tushadi. Inson tafakkur yordamida o'zi aks ettirgan, sezgan, idrok qilgan narsa va hodisalarning to'g'riligi, aniqligi va haqqoniyligini aniqlaydi. Tafakkur-fikrlash tufayli hosil qilingan hukmlar, tushunchalar, taxminlar, xulosalar chin yoki xato ekanligini bilib oladi.

Tafakkur sezgi, idrok, xotira, hayolga nisbatan predmetlar va voqyea-hodisalarni to'la, aniq, haqqoniy va umumiy tarzda aks ettiruvchi yuksak bilish jarayoni sifatida odamga tashqi olam muammolarini yechish kalitini beradi. Ana shu boisdan inson tafakkuri orqali moddiy olam predmetlari va voqyea-hodisalarini umumlashtirib, bevosita aks ettiradi, ular o'rtasidagi muhim bog'lanishlar, munosabatlar, xossalar va xususiyatlarni bilib oladi. Shu tufayli ham hozirgi kunda har bir odamning ilmiy va amaliy faoliyati mahsulini tafakkursiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Inson tafakkuri tashqi olamni umumlashtirish darajasiga, muammoni yechish vositasi xarakteriga, obyektning subyekt uchun yangiligi va shaxsning faollik ko'rsatish darajasiga ko'ra bir necha yo'nalishlarga ega. Tafakkur fikrlash faoliyati sifatida olib qaralganda, inson tomonidan u yoki bu muammoni hal etish jarayoni nazarda tutiladi. Fikr yuritish davomida muammo yechimini qidirishni boshqarishda shaxsning hissiy kechinmalarini muhim ahamiyat kasb etadi.

Mehnat faoliyati va ta'lim-tarbiya jarayonida odamlar o'rtasida yuzaga keladigan o'zaro munosabatlar tafakkur yordamida namoyon bo'ladi. Individual tafakkur ishlab chiqarish va ta'lim-tarbiya jarayonida jamoaviy mazmun kasb etadi. Natijada o'z-o'zini

to'g'ri anglash, o'z faoliyatiga to'g'ri baho berish, jamoa manfaatini o'ylash, ijtimoiy faollikka intilishga yo'naltirilgan tafakkur sifatleri tarkib topadi.

Insonning inson tomonidan idrok qilinishi va to'g'ri baholanishi ham tafakkur mahsuli bo'lib, shaxslararo muloqotlarning muvaffaqiyati ham xuddi shunga asoslanadi. Shaxslararo muloqotlar har bir odamdan irodaviy quvvat, aqliy jiddiylilik, chuqur va keng tafakkur talab etadi. Shaxsning mehnat faoliyatini belgilovchi yaratuvchilik, kashfiyotlar, ixtirolarning barchasi, undagi amaliy va nazariy ahamiyatga molik bo'lgan taxminlar, g'oyalarning hammasi tafakkur mahsulidir.

Ma'lumki, insonning bilish faoliyati tashqi olamni sezish va idrok qilishdan boshlanib, so'ngra tafakkurga fikr yuritishni aqliy yo'l bilan aks ettirishga o'tadi. Shu bilan birga tafakkur ham hissiy bilish a'zolarining mahsuli, ya'ni sezgilar, idrok, xotira va hayol materiallariga asoslangan holda namoyon bo'ladi. Tafakkur o'zi uchun zarur g'oyalarni hissiy obyektlardan oladi, shu bilan birga u fikr yuritishning asosiy manbai bo'lib xizmat qiladi. Tafakkur sezgi, idrok, xotira, hayol yordamida moddiy dunyo bilan bog'lanadi, so'ngra undagi narsa va hodisalarni, ularning belgi va hislatlarini bosh miya yarim shartlarida aks ettirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ushbu aks ettirishning to'g'riligi amaliy faoliyatida ong va aql-idrok yordamida uzluksiz ravishda nazorat qilinadi.

Tashqi dunyoning predmetlari va voqyea-hodisalarini sezgi, idrok, xotira va hayol kabi ruhiy jarayonlar yordamida bilish odam uchun muhim ahamiyatga ega. Lekin tashqi dunyo ta'sirotlarini keng va chuqur aks ettirish uchun bular hali yetarli emas. Fikr yuritish orqali atrof-muhitni chuqur bilish, predmetlar va voqyea-hodisalar o'rtasida mavjud bo'lgan o'zaro munosabat va bog'lanishlarni aniqlash muammoli tarzda namoyon bo'ladi. Chunki inson oldida muammo vujudga kelmas ekan, tafakkur jarayoni hosil bo'lmaydi. Tafakkur orqali inson asosiy va yordamchi, birlamchi va ikkalamchi, muhim va nomuhim jihatlarni bilib oladi, shu asosda ta'sirotlarga o'z munosabatini bildiradi.

Odam o'zining ma'naviy olamini tashqi dunyo bilan bog'lashda tafakkuri imkoniyatlariga suyanadi. Insonning bilish faoliyatida sezga, idrok, xotira timsollari bilan tafakkur o'zaro uzluksiz ravishda bir-biriga madad beradi. Shuning uchun ham bilish jarayonining hissiy va aqliy bosqichlari bor. Fikrlash imkoniyati tufayli inson «tabiat podshosi»ga aylandi, boshqa barcha jonzod esa fikrlash imkoniyatidan mahrumligi uchun «tabiat quli» bo'lib qolaverdi. Shu tufayli tafakkur voqyelikni bevosita so'z orqali umumlashgan holda aks ettirish jarayoni hisoblanadi. Tafakkur yordamida inson tashqi ta'sirotlar o'rtasidagi o'zaro murakkab bog'lanishlarni bilib oladi. Demak, sezgi, idrok, tasavvur yordamida bilish mumkin bo'lmagan voqyea-hodisalarni, ular o'rtasidagi eng muhim ichki bog'lanishlarni, munosabat va hossalarni tafakkur yordamida bilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Ko'rinib turibdiki, odamning tashqi dunyo predmetlari va voqyea-hodisalarini bilish jarayonida boshqa ruhiy holatlarga nisbatan tafakkurning roli benihoya kattadir. Buning uchun esa, odamda tafakkur operasiyalari va shakllari yaxshi rivojlangan bo'lishi kerak. Ta'lim mazmunini to'g'ri va to'liq o'zlashtirish talabadan chuqur va keng fikr yuritish, mustaqil va ijodiy tafakkurni talab etadi. Tafakkur yordamisiz talabada bilimlarni o'zlashtirish jarayoniga ijodiy yondashish qobiliyatini o'stirib bo'lmaydi.

Tafakkur xotirada mavjud bo'lgan xabarlarini qaytadan ishlaydi, umumlashtiradi, ularning kelgusini taxmin qilish imkonini beradi. Shunga qaramasdan, voqyelik tafakkurda hamisha ham aniq, to'g'ri aks etaydi, ba'zan chiqarilgan hukm va xulosalar amaliy tadbiquqa to'g'ri kelmaydi. Shuning uchun nazariya bilan amaliyot o'rtasida uzviy bog'liqlik, jips aloqa bo'lishi lozim. Tafakkur nazariy g'oyalarning amaliy mosligini yo tasdiqlaydi yo inkor qiladi.

Inson tafakkurining mazmuni uning nutqida o'z ifodasini topadi. Tafakkur va nutqning o'zaro bog'liqligi fikr yuritish operasiyalarining yuzaga kelishini osonlashtiradi, o'tmishga doir voqyealarni qayta ishlash, hozirgi davr talablari ilmini egallash, kelajakka oid to'g'ri mulohaza yuritishga imkon beradi.

Tafakkur jarayonining inson faoliyatidagi roli haqida gap ketganda shuni ta'kidlash joizki, tafakkur tashqi dunyo ta'sirotlarini umumlashtirgan holda ularning o'zaro bog'lanishlarini bevosita so'z orqali aks ettiradi. Demak, tafakkur yordamida inson to'plagan bilimda faqat inson zotiga xos bo'lgan ruhiy hodisalarning ideal tmsollari yaratiladi va umumlashtiriladi, avlodlar tajribasi qayta ishlanadi, hozirgi zamon va kelajak uchun zarur bo'lgan yangi g'oyalar ilgari suriladi va yangi nazariyalar kashf etiladi.

Inson o'z fikrini tushunchalar orqali ifodalaydi. Fikr ko'zgusi hisoblanuvchi tushunchalar bir va bir necha so'zlardan iborat bo'ladi. Til va tafakkur shu darajada o'zaro bog'liqmi, odam o'ylayotganda (fikrlayotganda) gapirayotgandek, gapirayotganda esa fikr yuritayotgandek o'zini his etadi.

Odamning fikrlash faoliyati ijtimoiy mohiyatga ega. Insonning tafakkurini ham, nutqini ham 9tilini) mehnat ehtiyoji, yashash uchun kurash, mehnat qurollarini yasash va ulardan oqilona foydalanishga intilish, boshqalar tajribasini o'zlashtirish, o'z tajribasini boshqalarga yoyishga qaratilgan talablar vujudga keltirdi. Nutqning sharofati bilan tafakkurning izchilligi, davomiyligi va mantiqiyliyi yuzaga keldi, ajdodlar ma'naviy mulkini kelajak avlodga eltish imkoniyati barpo etildi. Hozirgi mustaqillik tufayli qayta uyg'ongan qadriyatlarni istiqlool sari yo'naltirib, milliy urf-odatlarini davr talablariga muvoffiqlashtirishda g'oyat muhim manba sifatida xizmat qilib yosh avlotning ma'naviy kamolotida alohida rol uynamoqda.

Inson tafakkuri assosiasiyalardan (bog'lanishlardan) iborat bo'lib, bu bog'lanishlar narsa va hodisalar o'rtasidagi mavjud obyektiv munosabatlarning inson miyasida aks etishi sababli vujudga keladi. Bosh miyaning butun faoliyati tafakkurning nerv-fiziologik negizi bo'lib, miya po'stining murakkab analitik-sintetik faoliyati fikrlash jarayonining fiziologik asosi hisoblanadi. Bosh miya po'stining bu faoliyati birinchi va ikkinchi signallar sistemalarining baravar ishlashi bilan izohlanadi.

Tafakkur jarayonida har ikkala signallar sistemasi bir-biri bilan chambarchas bog'lanadi. Inson fikriy jarayonining normalligi uchun har ikkala signallar sistemasi bu o'rinda yetakchi funksiyani bajaradi. Chunki so'zlar, fikrlar signallarning signali bo'lib, murakkabumumlashtirish va abstraksiya jarayonlari bilan mustahkam aloqa bo'ladi.

Tafakkur operasialari deganda analiz va sintez, taqqoslash, abstraksiya, umumlashtirish, konkretlashtirish, klassifikasiya va sistemalashtirish kabilar tushuniladi.

A n a l i z. Predmet yoki voqyea-hodisalarni bo'linishi mumkin bo'lgan qismlarga fikran ajratish yo'li bilan o'rganish analiz deb aytiladi. Analizda narsa va hodisalar amaliy ravishda qismlarga ajratib, ularga xos belgi va xususiyatlar tahlil etiladi. Umuman, insonning tabiat va jamiyatga oid bilim va tajribani o'zlashtirishi analizdan boshlanadi. Odam o'zining kundalik faoliyatida, tafakkurning bu operasiasidan xilma-xil maqsadlarda ko'p marotaba foydalanadi. Talaba bir kunlik faoliyati yoki bir soatlik dars jarayonida juda ko'p ishlarni tahlil yo'li bilan amalga oshiradi. Til yuzasidan morfologik yoki sintaktik tahlillar, fizik yoki matematik masala va misollar yechish kabilar fikriy tahlil tufayli ro'yobga chiqadi. Shuning uchun dars (ma'ruza, amaliy mashg'ulot) jarayonini analizsiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Shunday qilib, odam analiz jarayonida o'rganilishi lozim bo'lgan bilimni tarkibiy qismlarga ajratish orqali butunning qismlarga, qismlarning esa butunga bo'lgan munosabatini aniqlaydi. Odam ana shu yo'l bilan bilim egallaydi. Texnik analiz tufayli predmet va jismlarning mohiyatini to'g'ri anglab oladi:

S i n t e z. Analizning teskarisi sintez bo'lib, fikrlashning bu operasiasida butunning qismlarga munosabati aniqlanadi va qismlarning o'zaro munosabati to'g'risida hukm chiqariladi. Sintez jarayonida odam analiz tufayli ayrim qismlarga ajratgan narsalarni fikran birlashtirib bir butun holatga keltiradi. Analiz va sintez bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Analiz jarayonining bo'lganidek, sintez jarayonining ham ta'lim jarayonida katta ahamiyati bor. O'quvchi tovushdan bo'g'inlar, bo'g'inlardan so'zlar, so'zlardan gaplar tuzib, o'z fikrini bayon etadi. Bu sintezning natijasidir.

Agar predmetlar, voqyea-hodisalar analiz qilinmagan bo'lsa, ularni sintez qilib bo'lmaydi. Odam narsalarni butun holda bilmasa, analiz qila olmaydi. Shuning uchun analiz va sintez yagona fikriy jarayonning ikki tomonidir. Masalan, talaba konspekt yozish, referat tayyorlash, amaliy mashg'ulotga hozirlik ko'rish, kurs ishi yoki diplom ishini bajarishda aqliy harakatlarining analiz va sintez operatsiyalari tufayli o'z maqsadiga erishadi.

T a q q o s l a s h. Taqqoslash predmetlar va voqyea-hodisalar o'rtasidagi o'zaro o'xshashlik va tafovutlar to'g'risida xulosa chiqarishdir. Odamning tashqi olamni aks ettirishida narsalar o'rtasidagi o'xshash jihatlar tafovutini, ular o'rtasidagi o'xshashlikni topishdan iborat bo'lgan fikr yuritishning katta amaliy ahamiyati bor. Narsalar o'rtasidagi o'xshashlik va farqni aniqlashdan iborat bo'lgan fikr yuritish operatsiyasi bilishning asosiy vositasi hisoblanadi. Boshqacha aytganda, har qanday tushunish va har qanday tafakkurning asosida taqqoslash yotadi. Odam barcha narsalarni taqqoslash yo'li bilan to'liq o'rganadi.

Taqqoslashning amaliy va nazariy kabi ikki yo'li bor. Konkret narsalar bevosita solishtirilsa, bu amaliy taqqoslash bo'ladi. Agar odam ikki ruchkani, ikki talaba daftarini, dars o'tilayotgan ikki yoki undan ortiq darsxonani chog'ishtirsa, bu amaliy taqqoslash bo'ladi. Odam tasavvur qilinayotgan narsalarni ongi orqali fikran solishtirsa, bu taqqoslashning nazariy yo'li bo'ladi. Ma'lumki odam narsa va hodisalarning hammasini bevosita aks ettirish imkoniyatiga ega emas. Shu bois odam o'z bilimini fikr yuritish, mantiqiy yo'l bilan boyitadi. Narsalarga xos belgi va alomatlarni nazariy taqqoslash asosida bilib oladi. Talaba o'z do'stlariga xos fazilatlarni fikran taqqoslash orqali ulardagi o'xshashlik va tafovutlarni aniqlaydi, o'qigan badiiy asarlardagi timsollarniqiyosiy o'rganish orqali ularga to'g'ri baho beradi. Demak, talaba ta'lim jarayonida taqqoslash borasidagi qanchalik ko'p mashq qilsa, unda taqqoslash ko'nikmasi o'sadi va umumiy tafakkur samarali bo'ladi.

A b s t r a k s i y a. Fikrlash orqali abstraksiyalashda narsalarga xos xislat, xususiyat va belgilarga doir hukm chiqariladi. Inson faoliyatida narsa va hodisalarning o'ziga xos belgisi, sifati va alomatlari haqida fikr yuritish muhim ahamiyat kasb etadi. Abstraksiyalash shunday fikr yuritishki, narsa va hodisaklarning muhim xususiyatlari anglab olinadi va bu xususiyatlar tafakkurningmustaqil obyekti bo'lib qoladi. Abstraksiya analiztufayli vujudga keladi. Abstraksiya mazmudagi bilimlar odam tomonidan qiyinchilik bilan o'zlashtirildi.

Ta'lim tizimidagi bilimlarning aksariyati abstraksiyalashdan keng foydalanishga asoslanadi. Qiymat, son, kenglik, tenglik, uzunlik, kattalik, qattqlik, zichlik, balandlik, ijobiylik, salbiylik, yoqimlilik kabi tushunchalarning talabalar tomonidan o'zlashtirilishi abstraksiya natijasidir. Predmetlar va voqyea-hodisalarning shakli, tusi, og'irligi, qiymati, tezligi kabilar abstraksiya jarayonining natijasi hisoblanadi. Abstraksiya yo'li bilan fikr yuritishning insonning ma'naviy kamolatida katta ahamiyati bor.

U m u m l a s h t i r i s h. Umumlashtirish shunday tafakkur operatsiyasiki, bunda narsa va hodisalarga xos xossa, belgi, xususiyat va alomatlar o'rganilib, umumiylik asosida birlashtiriladi. Masalan, temir, po'lat, latun, oltin kabilarni ularning o'xshashlikva umumiy belgilarga asoslanib, «metal» iborasi bilan nomlanadi. Olma, o'rik, shaftoli kabilar «meva» nomi bilan ataladi. Tafakkur jarayonida umumlashtirish hamma vaqt abstraksiyalash bilan bog'liq bo'ladi. Barcha umumlashtirish asosida abstraksiyalash jarayoni yotadi. Abstraksiyalashda narsa va hodisalarning o'xshash va muhim belgilari fikran ajratib olinsa, umumlashtirishda o'sha ajratib olingan o'xshash, umumiy va muhim belgilarga suyangan holda narsalar birlashtiriladi.

Odamning umumlashtirish asosida fikr yuritishi so'z orqali ruyobga chiqadi. Masalan, «talaba» so'zida oliy maktabda ta'lim olayotgan minglab yoshlar ifodalanadi.

Professor E.Toziyevning o'qitishicha, fikr yuritishning umumlashtirish operatsiyasini quyidagi turlarga bo'lish mumkin.

UMUMLASHTIRISH

mazmuniga ko'ra:

fikrining yo'nalishiga ko'ra:

- Elementar
- Emperik
- Tushunchali
- Nazariy
- xususidan umumiyga
- Umumiydan xususiyligiga
- Yakkadan umumiyga
va undan xususiyligiga
- Umumiydan xususiyligiga va
o'sha umumiydan yanada
umumiyga
- Kamroq umumiydan yanada
umumiyga
- Yagona umumiy holatdan
yanada umumiyroqqa

Tafakkurning umumlashtirish operatsiyasini yuqoridagi tarzda turlarga ajratish talabalarning bilimlarni o'zlashtirishini osonlashtiradi va umumiy o'quv faoliyatini kuchaytiradi.

K o n k r e t l a s t i r i s h. Konkretlashtirish yo'li bilan fikr yuritishning insonning amaliy faoliyati uchun katta ahamiyati bor. Bunday fikr yuritishda umumiy, mavhum belgi va xususiyatlar yakka, aniq narsalarga tadbiiq qilinadi. Konkret ifodalangan predmetlar va voqea- hodisalarni inson oson va to'liq idrok qiladi. Konkretlik belgisi inson uchun eng ma'qul hisoblanadi. Voqeyelikni konkret idrok qilish odamni irodaviy tanglik, aqliy, zo'riqish va stress (jiddiylilik) holatlaridan saqlaydi.

Konkretlashtirish hodisalarni ichki bog'lanish va munosabatlaridan qat'iy nazar, bir tomonlama ta'kidlashdan iborat fikr yuritish bo'lib, ikki xil vazifani bajaradi. Birinchidan, odam «harakat» tushunchasini idrok qilganda odamning ko'zi o'ngiga o'zi bajaradigan harakatlar, mashinalar, turli jivonivorlarga xos harakatlar keladi. Agar bu tushunchaning ma'nosi yanada kengaytirilsa, fizik harakat, ximiyaviy, biologik, tabiiy, ijtimoiy ma'nolardagi harakatlar idrok qilinadi. Ikkinchidan, talaba kitob, daftar, ruchka, rezinka, chizg'ich kabilarni o'quv qurollari tarzida anglaydi. Demak, konkretlashtirish atrof-muhitni mukammal idrok qilishning zarur shurtdir.

K l a s s i f i k a s i y a l a s h. Fikrlash jaryonida bir turkum ichidagi narsalarning bir-biriga o'xshashligiga va boshqa turkumdagi narsalardan farqiga asoslanib turkumlarga ajratish klassifikatsiya yoki sinfiylashtirish deb yuritiladi. Masalan, hayvonlarni sut emizuvchilar, sudralib yuruvchilar, suvda yashovchilar, quruqlikda yashovchilar, parrandalar va qushlar kabi sinfiylashtirish mumkin. Yoki o'simliklarni bir yillik, ko'p yillik, daraxtlar, o'tlar, madaniy o'simliklar, sabzavotlar, poliz ekinlari kabi turkumlashtiriladi.

Ijtimoiy hayot voqea-hodisalarini ham klassifikatsiyalash mumkin. Talabalarni guruhdagi mavqeyi, ilmiy mukammalligi, havaskorligi, sportga qiziqishi, ijtimoiy faolligi kabi turkumlarga ajratiladi. Psixologiya fani sohalari ham mehnat psixologiyasi, injenerlik, aviasiya, kosmos; maxsus psixologiya-patopsixologiya, oligofrenopsixologiya, surdopsixologiya, tiflopsixologiya, yosh psixologiyasi, bolalar psixologiyasi, o'smirlar psixologiyasi, katta yoshdagilar psixologiyasi, qarilik psixologiyasi (gerantopsixologiya) tarzida turkumlarga ajratiladi. Psixologiya fanini yuqoridagi tarzda klassifikatsiya qilish universitet ta'limi tizimida uni o'rganishni osonlashtiriladi, tartib bilan psixologik hodisalarni chuqur bilishga imkon beradi.

Shuning uchun klassifikatsiyalash o'rganilishi lozim bo'lgan narsalarning tartibini aniqlashda, voqea-hodisalarni yaxlit holda tekshirishda va esda qoldirishda muhim ahamiyat kasb etadi.


S i s t e m a l a s t i r i s h. Narsa va hodisalarning makon va vaqtdagi o'rniga qarab yoki mantiqiy joylashtirilishi sistemalashtirish deb aytiladi.

Sistemashtirish fazofiy (makoniy), xronologik va mantiqiy belgilariga qarab uch turga ajratiladi. Masalan, boqqa bir turdagi ko'chatlarning tartib Bilan o'tqazilishi, xonaga mebellarni joylashtirish, tarixiy voqyealarni yillar Bilan tartibga solish yoki darsxonadagi kitoblarni mavzusiga asosan joylashtirish kabilar sistemaga solishning misollaridir.

Sistemaga solishning nazariy va amaliy tomonlardan ahamiyati bor. talabalarning u yoki bu fan yuzasidan olayotgan bilimi tafakkurning shu operasiasiga asoslanadi. Ya'ni, talaba bilimni boblar, qismlar va bo'limlardan iborat qilib oladi, so'gra fikran yaxlit xolda o'zongida sistemashtiradi. Undan keyin bir-biriga o'xshash predmetlarga oid bilimni fikran tartibga soladi, sistemashtiradi, o'xshash va farqli tomonlarni aniqlaydi.

Shunday qilib, talabaning bilish faoliyatida to'plagan bilimlarini Amaliy faoliyatida qo'llay olishida sistemashtirish orqali o'rganishning katta ahamiyati bor.

T a f a k k u r f o r m a l a r i (shakllari). Tafakkur shakllariga hukmlar, xulosa chiqarish va tushunchalar kiradi. Tafakkur shakllarini jadval yordamida quyidagicha ko'rsatish mumkin.



Hukm. Narsalar va hodisalarga xos belgi, xislat yoki xususiyatni tasdiqlash yoki inkor qilish yo'li Bilan fikr yuritish hukm deb aytiladi.

Hukmlar mazmun jihatidan chin va xato, tuzilishi jihatidan esa yakka va umumiy kabilarga bo'linadi. Narsalarga xos belgilar hukmlarda to'g'ri aks etsa, xato hukm bo'ladi. Samarqand dunyoning qadimiy shaxridir degan hukm xato hukm hisoblanadi. Chunki dunyoda Samarqanddan qadimiyroq tarixga ega bo'lgan shaharlar anchagina. Talabalar kitob o'qiydilar degan hukm to'g'ri hukmdir. Chunki bu hukmda talabalikning muhim belgisi k i t o b o'q i m o q to'g'ri aks ettirgan.

Hukmlarda aks etgan voqyeaning mohiyatiga qarab hukmlarni:

- 1) sifat jihatidan tasdiqlovchi yoki inkor qiluvchi hukmlarga;
- 2) miqdori jihatidan yakka (juz'iy) va umumiy hukmlarga;
- 3) hukmlarning munosabatiga qarab shartli, ayiruvchi va qat'iy va taxminiy hukmlarga bo'linadi.

Narsa bilan belgining aloqasi tasdiqlangan hukm tasdiqlovchi hukmdir. Masalan, 1996 yil Amir Temur yilidir. Narsa Bilan belgi o'rtasida bog'lanishi bo'lmagan hukm inkor hukmdir. Masalan, Samarqand-qadimiy shahar emas, talaba kitob o'qimaydi va h.k.

Yakka narsalarga taalluqli hukmlar yakka, turkum narsalarga taalluqli hukmlar esa umumiy hukmlar deb aytiladi. Masalan Toshkent respublikamizning poytaxtidir. Talabalar kitob o'qiydilar. Birinchi hukm Toshkent shahrining poytaxtlik belgisini ifodalovchi yakka hukm, ikkinchi hukm talabalikning muhim belgisini ifodalovchi umumiy hukmdir.

Narsaga xos belgi tasdiqlansa yoki inkor etilsa, bunday hukm shartli hukm deb aytiladi. masalan, talaba ko'p kitob o'qisa, a'lochi bo'ladi. Kim ko'p ishlasa, u baxtli yashaydi.

Narsaga bir necha belgi berilib, unga tegishli bittasi ayirib olinsa, bunday hukm ayiruvchi hukm deyiladi. Narsa bilan belgi o'rtasida aloqaning bor yoki yo'qligi qat'iy aks

etgan hukmlar qat'iy hukm deyiladi. Masalan, O'zbekiston kelajagi buyuk davlatdir. Do'stlik qudratli kuchdir.

Narsa va hodisalar bilan ularning xususiyatlari o'rtasida aloqa bo'lishi ehtimoli faqat faraz qilinsa, bunday hukmlar ehtimollik hukmlari deb aytiladi. Masalan, ehtimol buy il kuz yaxshi kelar. Ertaga havo ochilishi mumkin.

Agar hukmda faqat haqiqatda bo'lgan voqeya qayd qilinmasdan, narsa bilan xususiyatning qonuniy aloqasi aniqlansa, bunday hukmlar zarurlik hukmlari deyiladi. Masalan, O'zbekiston boy-badavlat o'lkaga aylanishi muqarrar. Mehnatning insonga baxt keltirishi shubhasizdir.

Tushuncha. Narsa va hodisalarga xos umumiy va muhim belgilarni, bog'lanish va mohiyatni hukmlar orqali fikran keng va chuqur aks ettirishdan iborat bo'lgan fikr yuritish shakli tushuncha deb aytiladi. Inson narsa va hodisalarni taqqoslaydi, ularning o'xshashligi va farqini aniqlaydi, mohiyatini anglaydi, fikran ularning belgilarini ajratib, ularni abstraksiyalashtiradi va umulashtiradi. Buning oqibatida odamda olamdagi narsa va hodisalar to'g'risida tushuncha yuzaga keladi.

Tushunchalar mohiyati jihatidan konkret va abstrakt tushunchalarga bo'linadi. Predmetlarning o'zini ifodalovchi tushunchalar konkret tushunchalar deb aytiladi. Masalan, stol, parta, doska, ruchka, daftar va h.k. Predmetlarga xos belgi, xislat, xususiyatni ifodalovchi hamda narsalar o'rtasidagi ichki munosabatlar va qonuniyatlarga qaratilgan tushunchalar abstrakt tushunchalardir. Masalan, yoshlik; sevgi; yorug'lik; do'stlik; mehnatsevarlik; irodalilik va h.k.

Ko'lamli jixatidan tushunchalar kuyidagilar uch turdan iborat:

- 1) yakka tushunchalar;
- 2) umumiy tushunchalar;
- 3) to'planma tushunchalar.

Yakka predmetlar va hodisalarni ifodalovchi tushunchalar yakka tushunchalardir. Yakka tushunchalarda aniq timsol mavjud bo'ladi. Bir jinsdagi ko'p narsa va hodisalarni ifodalovchi tushunchalar umumiy tushunchalar deyiladi. Masalan, daraxt, meva, maktab, kitob kabi tushunchalar umumiy bo'lib, nok daraxti, olma, 49-o'rta maktab, umumiy psixologiya kitobi kabilar yakka tushunchalardir.

Bir jinsdagi narsa va hodisalar haqida yaxlit fikr yuritishni ifodalovchi tushunchalar to'planma tushunchalar hisoblanadi. Masalan, guruh, jamoa, xalq, oila, olomon, armiya kabilar to'planma tushunchaning misollaridir.

Tushuncha so'z bilan ifodaladi. Ammo hamma so'zlar ham tushuncha bo'lavermaydi. Fikr yuritishda tushuncha bo'lavermaydi. Fikr yuritishda tushuncha bilan so'z o'zaro bog'liq tarzda namoyon bo'ladi. So'zsiz tushuncha bo'lmaydi. So'z tushunchaning moddiy asosi funktsiyasini bajaradi. Tushunchalar bir yoki bir necha so'zlardan ham tashkil topadi. Masalan, maktab degan tushuncha bir so'zdan bir so'zdan, o'rta maktab tushunchasi ikki so'zdan va oliy maktab talabasi tushunchasi uch so'zdan iborat va h.k.

Har bir so'z muayyan mazmunni va tushunchani aks ettiradi. So'zlar aloqa vositasi sifatida tushunchalar mohiyatini anglatadi.

Tushunchalar so'zlar vositasi bilan shaxslararo munosabatlarda muhim rol o'ynaydi.

Xulosa chiqarish. Ikki yoki undan ortiq hukmlardan fikran yangi hukm hosil qilish xulosa chiqarish deb aytiladi. Xulosa chiqarish jarayonida foydalanadigan tayyor hukmlar asoslar bo'lib, ularning tahlilidan chiqarilgan yangi hukm xulosa deyiladi. Masalan, talabalar kitob o'qiydilar; Ozod talabadir, degan ikkita hukmni olaylik. Bu ikki hukmdan «Ozod ham kitob o'qiydi» degan yangi hukm chiqariladi. Demak, xulosa ikki yoki undan ortiq hukmlardan chiqariladi va uni isbotlashga ehtiyoj qolmaydi.

Xulosa chiqarishning uch turi bor:


- 1) induktiv xulosa chiqarish;
- 2) deduktiv xulosa chiqarish;
- 3) analogiya yo'li bilan xulosa chiqarish.

Bir necha ayrim hukmlardan umumiy xulosa chiqarish induksiya yo'li bilan xulosa chiqarishdir. Fikrlarning bu turi yordamida ayrim fakt va hodisalarni o'rganish natijasida umumiy qonun va qoidalar kashf etiladi. Masalan, adabiy kitob o'qish talaba uchun foydalidir. Ilmiy kotib o'qish talaba uchun foydalidir. Kasbiy kitob o'qish talaba uchun foydalidir. Demak kitob o'qish talaba uchun foydalidir, degan umumiy hukm chiqariladi.

Umumiy hukmlardan yakka yoki juz'iy xulosa chiqarish deduktiv xulosa chiqarishdir. Ta'lim jarayonida umumiy hukmlardan yakka xulosa chiqarish muhim ahamiyat kasb etadi, talabalarning bilimlarini o'zlashtirishini osonlashtiradi, ularning mustaqil fikrini o'stiradi. Masalan, talaba Ozod a'lo o'qishga intiladi, talaba Eldor a'lo o'qishga intiladi, talaba Erkin a'lo o'qishga intiladi. Demak, hamma talabalar a'lo o'qishga intiladilar. Bunda uchta yakka hukmdan bitta umumiy belgi – hamma talabalarga xos harakatga doir yangi xulosa chiqarildi.

Narsa va hodisalarning bir-biriga o'xshash bo'lgan ba'zi belgilarga qarab fikr yuritishdan iborat bo'lgan xulosa chiqarish shakl analogiya deb aytiladi. Analogiya xulosa chin, xato va taxminiy bo'lishi mumkin. Masalan, o'tgan imtihonga puxta tayyorlanib, besh olgan edim, bu imtihonga ham puxta tayyorlansam, besh olarman (talabaning o'ylari). O'tgan o'quv yilida 15 sentyabr kuni paxtaga chiqqan edik. Bu yil ham 15 sentyabr yaqinlashmoqda. Demak, paxta yig'im-terimiga jo'nasak kerak, deb talaba analogik xulosa chiqaradi.

Tafakkur turlari. Odam faoliyatining turli-tumanligi va murakkabligi tufayli unda tafakkurning turlicha qirralari namoyon bo'ladi. Moddiy olamni o'rganish, amaliy va nazariy vazifalarni bajarish hamda shaxslararo munosabatlarda odam fikr yuritadi. Ana shu fikrning xarakteriga, doirasiga (yoyiqligiga), muhimlik darajasiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi.¹



Insonning tasavvur qilinayotgan narsa va hodisalar haqida fikr yuritishi ko'rgazmali – obrazli tafakkur deyiladi. Tafakkurning bu turi ham ko'rgazmali –harakat singari ko'proq

¹ Tafakkur turlari sxemasi. Профессор Э.Бозиевнинг. Тафаккур психологияси. (-Т, «Ўлитувчи, 1990» китобидан олинди).

yoshlarda (ayniqsa 7-yoshgacha) mavjud bo'ladi. Yosh bolalar ilmiy tushunchalarga ega bo'lmaganliklari uchun asosan ko'rgazmali – obrazlar asosida fikr yuritadilar.

Mantiqiy tafakkur yordamida u yoki bu narsaning to'satdan hal qilinishi ixtiyorsiz (intuitiv) tafakkurdir. Ixtiyoriy tafakkur jarayoni esa mulohaza, muhokama, isbotlash, taxmin kabi shakllarda namoyon bo'ladi.

Shuni ham unutmaslik kerakki, ixtiyorsiz tafakkur ixtiyoriy tafakkur negizida vujudga keladi. Fan tarixida yirik ilmiy kashfiyotlar beixtiyor fikr qilib turgan mahalda to'satdan ixtiro qilingani ma'lum. Masalan, shunday hollar ham bo'ladiki, odam ixtiyoriy ravishda zo'r berib fikr qilgan vaqtda hal eitmay qolgan masalalar kutmagan holda, o'z-o'zidan hal qilinadi.

Taaujb, hayrat, qiziqish, ishonch, ishonchsizlik, shubhalanish va yangilikni sezish hissi ixtiyorsiz tafakkur jarayonini faollashtiradi, fikrlash jarayonlarining yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Odam fikr yuritilayotgan narsani idrok qilsa, tasavvur etsa, bunday tafakkur konkret tafakkur deyiladi. Odamning yashab turgan xonasi, boshidan kechirgan tarixiy voqyea, ko'rilayotgan osmono'par bino haqidagi fikrlari konkret tafakkur misollaridir.

Umumiy va abstrakt tushunchalarga asoslangan tafakkur abstrakt tafakkurdir. Abstrakt tafakkur umumiyashtirilgan tafakkur bo'lib, signallar signali bo'lgan nutq tufayli vujudga keladi. Abstrakt tafakkur konkret tafakkurdan kengligi, voqyelikni juda chuqur bilishga imkon berishi bilan farq qiladi. Abstrakt tafakkur haqiqatga erishiga, voqyelikni chuqur va to'la yulishga yordam beradi.

Abstrakt va konkret tafakkur bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, odamning yaxlit tafakkurini tashkil etadi, odamning abstrakt tafakkuri konkret tafakkuri asosida taraqqiy qiladi. Yana shuni ham aytish kerakki, har bir abstrakt tafakkur jarayoni konkret tafakkurga asoslanadi. Har qanday abstrakt fikr juda ko'p konkret fikrni o'z ichiga oladi va shu konkret fikrga tayanadi.

Voqyea-hodisalarni faraz qilishga, izohlashga qaratilgan tafakkur nazariy tafakkurdir. Tushunchalar o'rtasidagi ichki bog'lanish va munosabatlarni nazariy jihatdan fikr yuritish yo'li bilan izohlash nazariy tafakkur natijasidir. Nazariy tafakkur jarayonida bir qancha savollar («nega», «Nima uchun», «Nima sababdan»? kabi) tug'iladi va bu savollarga mantiqiy oqilona javoblar qaytariladi.

Voqyelikni o'zlashtirish vositasi bilan real narsa va hodisalarni yaratishga yo'naltirilgan fikr yuritish **amaliy** tafakkurdir. Odamning amaliy faoliyati tafakkursiz vujudga kelmaydi. Amaliy tafakkur shaxsning xayoli, irodasi, oddiy va murakkab harakatlari bilan chambarchas bog'liqdir. Bilish va amaliy faoliyat jarayonida nazariy va amaliy tafakkurning ahamiyati baravar hisoblanadi. Nazariy tafakkurda bo'lganidek, amaliy tafakkur jarayonida ham odam o'z oldiga bir qancha savollar qo'yadi va bu savollarga aqliy harakatlari bilan javob qaytaradi.

Tafakkur turlari orasida ijodiy (produktiv) tafakkur muhim ahamiyatga ega. Ijodiy tafakkur vaqtida odamda savollar tug'iladi, vazifa aniqlanadi, uni hal qilish yo'llari fikran natijasida turmush uchun nihoyatda zarur bo'lgan kashfiyotlar, ixtirolar bunyod etiladi. Shuning uchun ijodiy tafakkur yangi-yangi muammo o'ylab topish va ularni hal etishda muhim omil bo'lib, bunday tafakkursiz insonning bilish faoliyatini tasavvur etib bo'lmaydi.

Ijtimoiy muhitni, tevarak-atrofni to'g'ri o'rganish va aks ettirishga qaratilgan fikr yuritish **realistik** tafakkur bo'lib, u mantiqiy qonun va qoidalarga asoslangan holda voqyelikni in'ikos qiladi. **Autistik** tafakkur esa ayrim shaxslarning o'z tilaklarini ro'yobga chiqarishga yo'naltirilgan individualistik tafakkurdir. U yoki, bu muammoni yechish bilan bog'liq bo'lgan fikr yuritish **vizual** tafakkur deyiladi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Karimova V., Akramova F. Psixologiya. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2002.
2. Karimova V. Mustaqil va tanqidiy tafakkur. Toshkent, 2007.
3. Petrovskiy A.V. Umumiy psixologiya. Toshkent. O'qituvchi, 2008.
4. Xalilov M. Bilish jarayonlari psixologiyasi. O'quv qo'llanma. 1-2-qismlar. Samarqand. SamDU. 1999 yil.
5. G'oziyev E. Tafakkur psixologiyasi. Toshkent, 2001.
6. G'oziyev E. Psixologiya. Kasb-hunar kollejlari uchun darslik. Toshkent. O'qituvchi, 2008.